

BADIY ASAR USTIDA ISHLASH TAJRIBASIDAN

Salisheva Umida,
*Qozog’iston Respublikasi,
Turkiston viloyati,
Mahmud Qoshg’ariy
maktab-litseyi
o’qituvchisi*

Mavzu: G’. G’ulom. “Mening o’g’rigina bolam” hikoyasi

Dars maqsadi: Hikoyaning mazmun-mohiyati, qahramonlarning xarakterlari bilan tanishtirish. O’quvchilarni o’tmishni bilish, hozirgi kun qadriga yetish, vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik va kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash. Bahs-munozara va tahlil jarayonida o’quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlash ko’nikma va malakalarini, shkningdek, o’zbek tilidagi monologik nutqini rivojlantirish.

Dars jarayonida qo’llaniladigan vosita va metodlar: AKT, VENN diagrammasi, poster, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, refleksiya, baholash

Dars rejasi:

1. Kirish: Tashkiliy qism. Darsga tayyorgarlik ko’riladi.
2. O’quvchilar uch guruhgaga bo’linadi.
3. Guruhlar sardorlari tanlanadi. Qoidalar aytildi.

1. O’qituvchining kirish so’zi:

Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so’raydi qadrin.
Fursat g’animatdir, shoh satrlar-la,
Bezamoq chog’idir umr daftarin.

O’tayotgan umrimizning har bir kuni, har bir sahifasi faqat yaxshiliklar, xayrli va savobli ishlar bilan to’lsin deya darsimizni boshlaymiz.

2. Guruhlarga topshiriq beriladi va o’quvchilarga baholash varaqalari topshiriladi.

Guruh o’quvchilari “Mening o’g’rigina bolam” hikoyasi asosida poster tayyorlaydi.

1. Posterlar tayyorlanadi va himoya qilinadi. Har bir guruh posterlariga qisqacha izoh berilib, rag’batlantiriladi.

2. So’z ko’rki maqol. O’quvchilarning o’zbek tilida mustaqil fikrlash doiralarini kengaytirish maqsadida guruhlararo debat uchun mavzu beriladi. Debat

mavzusi multimedia orqali ko‘rsatiladi: “Men shu kishini tanirdim, lekin uni hech kimga aytgan emasman”.

3. Muallifning ushbu gapi yuzasidan birinchi guruh maqollar asosida matnga tayangan holda “O‘g‘riga do‘stona munosabatda bo‘lish mumkin emas” degan g‘oyani ilgari surib, o‘g‘rini qoralaydi. Ikkinci guruh esa maqollar asosida “O‘g‘riga do‘stona munosabatda bo‘lish mumkin” deya o‘z nuqtai nazarlarini asosli himoya qiladi. Uchinchi guruh esa hikoyadagi qahramonlarning boshiga tushgan tashvishlarning bosh sababkorini aniqlab, xulosa chiqaradi.

3. Bildirilgan asosiy fikrlar:

- O‘g‘riga do‘stona munosabatda bo‘lish mumkin emas. Muallif o‘g‘rining kim ekanligini aytishi kerak edi. Chunki: ”O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas” deganlaridek, u ertaga boshqa birovning uyiga o‘g‘rilikka tushadi.

- Bizning guruh bu fikrga qo‘silmaydi. Biz, ”O‘g‘riga do‘stona munosabatda bo‘lish mumkin” degan fikrni aytmoqchimiz. Hikoyachi nabira “Chaqimchining joyi jahannam” degan naqlga amal qilib shu sharoitda o‘g‘rining kim ekanligini aytmay to‘g‘ri ish qilgan, deb o‘ylaymiz. Agar aytganida, u kishi qamalib, bola-chaqasi och va yalang‘och, ya’ni yana bir oila boquvchisiz qolar edi.

- Biz bu fikrga qo‘silmaymiz, chunki xalqda: “Tovuq go‘ng titmasa, boshi og‘riydi” degan naql bor. U tekinxo‘rlikka, poraxo‘rlikka o‘rgana boshladi. Hatto qingir ishlarini ellikboshiga xo‘roz berib bosdi-bosdi qilib yuboradi. Otni tepmaydi dema, itni kopmaydi dema.

- Bizning fikrimizcha, u tekinxo‘r yoki poraxo‘r emas, ya’ni “Olma pish - og‘zimga tush” deb yotadigan yalqovlardan emas. O‘zi asli mehnatkash yigit edi. Buni Roqiyabuvi bilan bo‘lgan suhbatidan bilsak ham bo‘ladi. Avval u kosiblik qilib, peshona teri bilan mehnat qilib bolalarini boqqan edi. Axir “To‘rt oyoqli ot ham qoqiladi”.

- Yo‘q, u hatto mana shu qilib yurgan ishlarini tirikchilik deb sanaydi Buni hikoyaning “Axir, buvijon, siz xam birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligidimizning yo‘lini to‘saverasizmi?” degan gaplaridan bilsak bo‘ladi. U avval boshqa uylarga ham o‘g‘rilikka tushgan edi. Xalq “Yomon o‘ldi desa ishon, qilig‘ini qo‘yibdi desa, ishonma” degan naqlni bekorga aytishmagan. U baribir o‘g‘rilik qilaveradi.

-Birovni qoralash juda ham oson ish. “Halol ish - lazzatli yemish” ekanligini u juda xam yaxshi biladi. Shu qilib yurgan ishi, ya’ni o‘g‘irligi noto‘g‘ri ekanligini aytib kuyunadi. “Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak” deganlaridek, u oila boqishi kerak edi.

- Shu paytda ko‘pchilik qiyin ahvolda edi, lekin hamma ham o‘g‘ri bo‘lib ketgani yo‘q. “Sabr tagi sariq oltin” deganlaridek, u bu yo‘lga kirmaslik kerak edi. Bizning fikrimizcha, u “Egri bo‘lma – to‘g‘ri bo‘l” degan naqlni unutib faqat o‘z boshinigina o‘yladi. Axir, oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘dir.

- “Oqko‘ngil insonga birovning dardi ham botar” deganlaridek, biz uni oqko‘ngil, insofli yigit deya olamiz.U kampirning dardini bor vujudi bilan tingladi. Buvi unga choy qo‘yaman, to‘nka yorib ber, birgalashib choy ichamiz deganida: ”To‘nka yorib berishga beramanu, lekin choy icholmayman. Juda yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman”,- deydi. Hatto buvi rozi bo‘lib bergen qozonni “yetimlarga buyursin, to‘ylarida kelib xizmat qilaylik” deya olmasdan tashlab ketadi. Agar haqiqiy o‘g‘ri bo‘lganida, ya’ni o‘z boshinigina o‘ylaganida qozonni olib ketar edi. ”Odamning husni uning insofida” deb bekor aytmasalar kerak.

O‘qituvchi: Demak, hikoyadagi o‘g‘rini sharoitga qarab qoralasak xam, oqlasak ham bo‘lar ekan. Endi shu timsollarimizning boshiga tushgan tashvishlarning bosh sababkorini uchinchi guruh ayтиb bahs-munozaramizga yakun yasasak.

Uchinchi guruh fikri: Bizning guruh hikoyadagi insonlarning boshiga tushgan tashvishlarning hammasiga faqat urushni aybdor deb sanaymiz. Agar urush bo‘lmanida, Roqiyabuvining nabiralari yetim qolmas edi. Kosib yigit xam choraszizlikdan qingir yo‘lga kirmasdan, o‘z kasbi- kosiblik bilan shug‘ullanib, oilasini halol va to‘g‘ri yo‘l bilan boqar edi. “Urush – ofat” deb ota-bobolarimiz bekor aytishmagan. Bu hikoyada o‘g‘ri yigitda ham, o‘g‘rining kim ekanligini bilib turib uni sir tutgan muallifda ham ayb yo‘q.

O‘qituvchi: Urushning oqibatida choraszizlikdan och qolgan, bola-chaqasini boqish uchun o‘g‘irlik yo‘liga kirgan kosib yigitga bo‘lgan munosabatlaringizni tingladik. Lekin inson har qanday sharoitda ham to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishi kerak. Bir burda non topsa ham peshona teri bilan topib yeishi kerak. O‘g‘rilik qilgan odamni o‘g‘ri deyishadi. Bu juda yomon nomdir. Bir marta o‘g‘riliqi bilan qo‘lga tushgan odam butun umri davomida”O‘g‘ri”degan nom bilan o‘tib ketishi mumkin. O‘g‘rilik qilgan odam qonun yo‘li bilan jazolanadi. O‘g‘rilik qilgan bolaning ota-onasidan o‘g‘lining qilmishi uchun katta miqdorda jarima undirish mumkin. Ota-onaning farzandi uchun ko‘pchilik oldida uyaltirilishi eng katta jazodir. Ota-ona farzandini dunyoga keltirib, ulg‘aytirsa-yu, ularni uyaltirish biz uchun yaxshi ish emas. Shuning uchun o‘g‘riliqni o‘rganmasdan, yaxshi insoniy fazilatlarni o‘zimizda kamol toptiraylik.

4. Video ma’lumotlar namoyishi. O‘g‘rilik va unga qo‘llanadigan jazo haqida parcha ko‘rsatiladi.

5. Aqlni charxlash mashqlari. O’quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o’stirish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarini, guruhlarda ishslash faoliyatini rivojlantirish maqsadida savollar beriladi.

Birinchi guruh: Hikoyani o‘qish, tinglash jarayonida siz qanday holatga tushdingiz? Nima sababdan u sizni ham kuldiradi, ham yig‘latadi?

Ikkinci guruh: Nima uchun butun dunyo xalqlari urushni qoralaydi, tinchlikni yoqlaydi? Bugungi kunda va kelajakda shunday voqealar bo‘lishi mumkinmi?


Uchinchi guruh: “Urush va tinchlik “mavzusida Venn diagrammasini tuzish va sharhlash.

Guruhlar fikri:

- Biz hikoyani zo‘r qiziqish bilan o‘qib chiqdik. Juda ham chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hikoya. Hikoyani o‘qish jarayonida qattiq ta’sirlandik. Roqiyabuvining boshiga tushgan kulfatlar, biror soat mijja qoqib uxmlay olmasligi, salqin havoda to‘rtta yetimning eski ko‘rpa-yostiqlarga o‘ralib, kir ip sholcha ustida bir-birining pinjiga kirib, bir-birini isitib uxlaganlari haqida tasvirlangan parchalarini o‘qib har qanday odam ham ko‘ziga yosh oladi. O‘g‘ri kelganda hikoyachi nabiraning quvonishlari, Roqiyabuvining uyiga kelgan o‘g‘ri bilan bemalol gaplashib o‘tirishlari, choyga taklif qilishlari, uydan quruq ketmasin deya qozonini berishlarini o‘qib miriqib kuldik.

- Tinchlik bo‘lsa el ko‘payar, urush bo‘lsa sel ko‘payar. Urush ko‘pgina begunoh insonlarning qoni to‘kilishiga sabab bo‘ladi. Minglab shahar va qishloqlar vayron bo‘ladi. Urush bo‘lgan davlatda baraka ham bo‘lmaydi. Farzandlar otalaridan, onalar farzandlaridan ayrıldi. Bizning Vatanimiz tinch. “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas” deganlaridek, eng katta boyligimiz bu bizning millatlar o‘rtasidagi tinchlik va totuvligimizdir. Mamlakatimizda 130dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ularning maqsadi bitta, ya’ni o‘z vatanining rivojlanishi uchun hissasini qo‘sish. Biz ham bir bo‘lib Vatanimiz tinchligi, birdamligi uchun hissamizni qo‘saveraylik. “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida urush yillaridagi bir o‘zbek oilasining boshidan kechirgan bir kunlik hayoti tasvirlangan. Urush tufayli xalq ishsiz, bola-chaqasi esa och, oqibatda hatto mehnatsevar, sodda, insofli insonlar ham o‘g‘rilik qilishga majbur bo‘lgan. Ha, bugungi kunda ham, kelajakda ham shunday voqealar bo‘lishi mumkin, bo‘lyapti ham. Bunga jahonda bo‘layotgan notinchliklar, urushlarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

1. **Venn diagrammasi.** “Urush va tinchlik “mavzusida Venn diagrammasini tuzish va sharhlash.



9. Darslik bilan ishlash. Ifodali o‘qish tovush ko‘rgazmaliligidir. Asarni ifodali va rollarga kirib o‘qigan o‘qituvchi yoki o‘quvchi asar bilan tinglovchi o‘rtasida vositachi, badiiy matnni talqin qiluvchi hisoblanadi, o‘zining jarangdor tovushi bilan badiiy asarning g‘oyasi va ta’sirchanligini namoyon etadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun kampir va o‘g‘ri dialogi o‘qitiladi.

10. Baholash. Guruh sardorlari o‘z guruhidagilar bahosini e’lon qiladi va izohlaydi. So‘ngra o‘qituvchi o‘z fikrini bildiradi.

11. Uyga vazifa: Hikoyadagi bola xonadoni, uning yashash tarzi bilan bugungi hayotni qiyoslab, “Men baxtliman, chunki...” jumlasini davom ettirib, mustaqil va jodiy yondashgan holda esse yozadilar.

12. Refleksiya. O‘quvchilar darsdan olgan taassurotlari haqida o‘z fikrlarini stikerlarga yozib, har bir guruh o‘z posteriga yopishtiradilar.

13. Darsni yakunlash. O‘qituvchi so‘zi:

Aziz o‘quvchilar, sizlar bilan bugun “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasining mazmun-mohiyatini, qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini tahlil qildik. Ko‘rdingizki, Roqiyabuvining shirinso‘zligi, mehmondo‘stligi orqasida yomon niyatda kelgan o‘g‘ri buviga yaxshi tilaklar aytib xayrlashib ketdi. Roqiya buvidagi mehr, matonat, odamiylik, oljanoblik xususiyatlari sizlarning qalbingizga ham o‘z soyasini solgan bo‘lsa, darsimiz besamar o‘tmagan bo‘ladi.